

BOLALAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLARNI INTERVENSIYA VOSITASIDA ANIQLASH VA DAVOLASHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Muhammadjonova Asila Bahromjon qizi
Magistrant, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
asilamuhammadjonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar nutqida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda intervensiya yondashuvining psixolingvistik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda nutq va til buzilishlarini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy psixolingvistik modellar tahlil qilinadi. Shuningdek, fonologik intervensiya yondashuvlarining nazariy asoslari va ularning bolalar nutqini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari individual intervensiya dasturlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: bolalar nutqi, nutq kamchiliklari, intervensiya, psixolingvistika, fonologik buzilish, nutq terapiyasi.

Bugungi axborot davrida nutqni shakllantirish, undagi mavjud muammolarni hal qilish har bir lingvistika vakili uchun dolzarb vazifalardan biridir. Chunki ravon nutqsiz jamiyat bilan faol munosabatga kirishish, kerakli ma'lumot almashish birmuncha murakkabliklar tug'- dirishi mumkin. Shuni hisobga olgan holda maqolamizni intervensiya tadqiqotlarini qanday o'tkazish kerakligini o'rganishga bag'ishladik.

Intervensiya – rejalashtirilgan, maqsadli va tizimli ravishda o'tkaziladigan korreksion ta'sir, ya'ni nutqdagi psixologik yoki rivojlanishdagi muammolarni tuzatish uchun bajariladigan maxsus jarayondir. Nutqni kuzatish va davolash jarayonida intervensiya: bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash; aniqlangan kamchiliklarni ma'lum miqdorda kamaytirish yoki to'liq yo'qotish uchun mashg'ulotlar ishlab chiqarish; ularni bosqichma bosqich qo'llash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Intervensiya tadqiqotlari bir nechta sabablarga ko'ra muhimdir. Eng avvalo, individual mijozlarga samarali va vaqtni tejagan tarzda xizmat ko'rsatishni taklif qiladi. Bunday usulda tadqiqot olib borilsa bolalar ijtimoiy, savodxonlik va akademik qiyinchiliklar xavfiga kamroq duch keladilar va ularning muammolarini imkon qadar tez va samarali hal qilish mumkin. Bundan tashqari, kengroq kontekstda nutq va til terapiyasi xizmatlarining ahamiyatini ko'rsatish ehtiyoji mavjud. Tushunarsiz nutq egasi bu jarayonda samarali muloqotni shakllantira oladi va jamiyatdan uzilib qolishiga sabab bo'luvchi omillar nutqiy faoliyatni yuzaga chiqarishi uchun to'sqinlik qilmaydi. Va o'z navbatida bu kamchiliklar o'zaro aralashuvga muhtoj bo'lganidan kerakli chora tadbirlar bilan davolanishni, nutqdagi uzilishlar, tushunarsiz birliklarning ustida amaliyot o'tkazilishini talab qiladi.

Bu usul nutq kamchiliklarining turiga qarab tuziladi. Intervensiya nutq, til va savodning normal rivojlanishi hamda bolalarda ushbu jarayon bilan bog'liq kognitiv bilimlarga qo'shimcha hissa qo'shish imkonini beradi. (Bishop, 1998; Baker, Croot, McLeod and Paul, 2001). Intervensiya nazorat ostida amalga oshirilganda nutq shakllanishining boshlang'ich nuqtasiga qaytishga hamda nutq va tilni ishlab chiqarish tizimiga ta'sir qiluvchi qiyinchiliklarni qayta kor'ib chiqishga yo'l ochadi. Tadqiqotlar jarayonida Wilson va Patterson (1990) shunday xulosaga keladilar: "Nuqsonning tabiati

haqidagi nazariyalar davolashda berilishi kerak bo'lgan savollar bilan bog'liq emas". Ya'ni ular intervensiya jarayonida nutqiy kamchilikning kelib chiqishiga sabab bo'lgan tibbiy muammolardan foydalanib amaliyotni amalga oshirishmaydi. Bolalarning individual nutqini tahlil qilish orqali turlicha yondashuvlarni ishlab chiqishadi. Davolash jarayonida savollar mavjud kamchiliklarni aniqlash bilan bir qatorda uni qanday bartaraf etishga ham yo'naltirib boriladi.

1960-yillarda "nutq terapiyasi"ga bihevizizm kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, nutq maxsus xulq-atvor sifatida qaralgan va uni muhit hamda uning avvalgi va keyingi oqibatlarini o'zgartirish orqali tuzatish mumkin deb hisoblangan (masalan, Gray va Fygetakis, 1968; Sloane va MacAuley, 1968). Ya'ni inson nutqini atrofidagi kishilar va ba'zi salbiy harakterlarini tuzatish orqali to'g'rilashga erishish mumkin deb qaralgan. 1970-yillarda lingvistika ta'siri kuchayib, individual fonemalarga qaratilgan artikulyator yondashuvlardan (talaffuzga asoslangan) (masalan, Van Riper, 1963) fonologik terapiyaga (masalan, Ingram, 1974, 1976) o'tildi. Fonologik terapiya tarafdorlari fonologik jarayonlarni hisobga olgan holda o'rganishni samaraliroq degan xulosani ilgari surdilar. Bu yondashuvlarning asosiy maqsadi bolaning nutq ishlab chiqarish tizimini yaxshilash va shu orqali uning nutqini aniqroq talaffuz qilinishiga erishish edi. Lingvistikaning nutq va til terapiyasiga qo'shgan hissasi katta bo'lib, artikulyatsiyadan tashqari kommunikatsiya murakkabliklarini tushunishga imkon berdi. Bu hissa fonologiya bilan cheklanmaydi – pragmatika va metalingvistik bilimlar 80–90 yillarda nutq terapiyasi amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatdi (Gallagher, 1998). Almost va Rosenbaum (1998) fonologik qiyinchiliklari bo'lgan bolalardagi intervensiya tadqiqotlarini ko'rib chiqib, intervensiya olgan bolalar yaxshilanishini, o'rtacha 1.69 effekt o'lchami bilan qayd etgan. Ya'ni Cohen mezoniga ko'ra hisoblangan. (solishtirish uchun

- 0.2 → kichik effekt
- 0.5 → o'rtacha effekt
- 0.8 → katta effekt
- 1.69 → juda katta effekt)

Shriberg va Kwiatkowski (1994) fonologik intervensiyaning foydalarini shunday baholaydi: "Fonologik davolash olgan bolalar nutqining aniqligi va kommunikativ faoliyati yaxshilanadi ". Roulstone (2001) 2 yil ichida "International Journal of Language and Communication Disorders" jurnalidagi maqolalarning 55% bolalar haqida bo'lsa-da, ulardan atigi 9 tasi intervensiya tadqiqotlari ekanini bildiradi. Ya'ni tadqiqotlar shunchaki kamchiliklarni belgilash bilan cheklangan, nutq muammosini yaxshilashga e'tibor berilmagan.

Sommers va boshqalar (1992) fonologik terapiya bo'yicha qayta ko'rib chiqish o'tkazib, ko'proq samaradorlik ma'lumotlari zarurligini, mavjud ishlarda esa metodologik kamchiliklar ko'p ekanini aytgan. Law va Garret (2003) esa faqat randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqotlarni ko'rib chiqib, fonologik va ekspressiv muammolari bo'lgan bolalar uchun terapiya samaradorligini tasdiqlagan, ammo reseptiv qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun dalillar kamligini bildirgan. Ko'pchilik natija tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolalarga qaratilgan. Biroq, ba'zi bolalar yillar davomida intervensiya oladi, ammo muammolar to'liq hal bo'lmaydi. Ba'zilar terapiyaga javob bermaydi (Ruscello, 1995). Ya'ni davolash jarayoniga to'la mos kelmaydi, kamchiliklar bartaraf etilmaydi. Bu bolalardagi nutq kamchiliklari maktab yillarigacha, hatto katta yosh davriga qadar ham davom etishi mumkin (Shriberg, Gruber

va Kwiatkowski, 1994). Shu sababli, nutqida kamchiliklari, fonologik xatolari saqlanib qolgan maktab yoshidagi bolalarni o'rganish va ular uchun samarali intervensiya ishlab chiqish muhim vazifa sanaladi.

Rivojlanishda fonologik buzilishlari bo'yicha samaradorlikni o'rganishda ko'proq yakka-subyekt (single-case) dizaynlar qo'llanilgan. Bu tadqiqotlar odatiy klinik sharoitlarda muolajaning samarasi bilan shug'ullanadi. Odatda aniq terapiya dasturi kichik guruhdagi bolalarda single-case yoki multiple-baseline usullari bilan baholanadi. Law (1995) ta'kidlaganidek, single-case dizaynlari aynan fonologik terapiyada o'zgarishlarni ishonchli ko'rsatgan. Single-case ishlari nutq jarayonlari, nutq ishlab chiqarish, receptiv va ekspressiv til, o'qish va yozish kabi ko'plab sohalarni qamrab olgan. Ularning nazariy asoslari turlicha: psixolingvistik va kognitiv neyropsixologik modellarga tayanganlar, lingvistik nazariyaga tayanganlar, yoki nazariy asoslari kam aniq bo'lganlar.

Modelga asoslangan tadqiqotlarda bolalarning chuqur baholanishi orqali muammo manzili haqida farazlar ishlab chiqiladi va intervensiya natijalari shu farazlarga qaytib baholanadi. Ba'zi single-case tadqiqotlar intervensiyasiz faqat diagnostika bilan shug'ullanib, terapiya bo'yicha tavsiyalar berib o'tadi. Psixolingvistik modelga tayanmagan, faqat lingvistik yondashuvga asoslangan tadqiqotlar ham bor (Weiner, 1981; Bernhardt, 1992 va h.k.). Masalan, Pratt va boshqalar (1993) Speech Viewer dasturi orqali unli tovushlar terapiyasini sinagan; 6 nafar boladan 4 tasi maqsadli unli tovushlarni yaxshilagan.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ham ayrim single-case ishlari mavjud:

Gibbon va boshq. (2003) — 10 yoshli qiz bilan;

Shuster va boshqalar (1992) — ko'p artikulyatsiya xatolari bo'lgan o'smir bilan.

Ohirgi yillarda bolalarda mavjud nutq kamchiliklarini aniqlash uchun quyidagi modellardan foydalanilmoqda: 1. Chiat (2000) modeli. 2. Stackhouse va Wells (1997) modeli.

Yuqoridagi modellar aynan bolalar uchun yaratilgan. Bishop (1997) kattalardan olingan modellardan bolalar uchun foydalanishda ehtiyot bo'lishni tafsiya qiladi. Afsuski, ko'pgina maqolalarda qaysi model nima uchun tanlangani aniq bayon etilmagan. Ba'zi tadqiqotlarda bir nechta modelni birgalikda intervensiya asosini yaratish uchun qo'llangan. Tadqiqotlarda ilmiy ahamiyatga ega natijalar kam hollarda o'lchangan. Bolaning xulqi o'zgarganini aytish, mavjud kamchiliklarni qayd etish bilan cheklanishgan. Maktab yoshidagi bolalarda modelga asoslangan intervensiyalar juda kam. Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, rivojlanishida nutq muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda intervensiya samaradorligini tekshirish uchun turli yondashuvlar qo'llangan. Tadqiqotlarning katta qismi maktab yoshidan ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarga qaratilgan. Ammo barcha tadqiqotlar ham o'z natijasini bermagan. Ko'plab jarayonlar faqat mavjud xatolarni belgilab qo'yish bilan cheklangan.

Yuqoridagi ishlar ko'rib chiqilib amaldagi tadqiqotimizda quyidagilarga e'tibor bergan holda ilmiy yondashildi: nutq egasining reseptiv, ekpressiv va pragmatik til holati; xronologik yoshi; kognitiv darajasi; tibbiy holati; nogironligi; maktabdagi faoliyati.

Tadqiqot ishtirokchilari haqida to'liq ma'lumot berilib, mavjud psixolingvistik nuqsonlarning batafsil tahlili keltirib o'tiladi. Ushbu jarayonda nutq va til buzilishlari qanday bo'lishi mumkinligi muhokama qilinadi. Tajriba davomida Chiatning (2000):

“Har bir soʻz fonologik - semantik -sintaktik kompleksdir. Soʻzlarni bilish – bu bunday komplekslarni aqlimizda, yaʼni mental lugʻat yoki leksikonda saqlashdir “, – degan ilmiy fikrini tayanch holda olindi va ushbu fikrlar amaliyot jarayonida koʻrib chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar nutqida uchraydigan kamchiliklar koʻp darajali psixolingvistik tizim buzilishi sifatida namoyon boʻlib, ularni samarali aniqlash va bartaraf etishda intervensiya yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, nutq buzilishlarini faqat tashqi belgilar asosida emas, balki ularning fonologik, leksik va sintaktik darajadagi ichki mexanizmlarini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur. Mazkur maqolada koʻrib chiqilgan psixolingvistik modellar, xususan, Chiat hamda Stackhouse va Wells modellari bolalar nutqidagi kamchiliklarni chuqur va tizimli oʻrganish imkonini beradi. Ushbu modellar asosida tashkil etilgan intervensiya dasturlari individual yondashuvni taʼminlab, har bir bolaning nutq rivojlanishidagi oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Shuningdek, intervensiya tadqiqotlarida single-case dizaynlarning qoʻllanilishi nutq terapiyasining samaradorligini aniq baholash imkonini beradi. Bu esa amaliy logopedik faoliyatda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Natijada, bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda individual, modelga asoslangan va tizimli intervensiya yondashuvlarini keng qoʻllash tavsiya etiladi. Kelgusida esa maktab yoshidagi bolalar bilan intervensiya samaradorligini chuqurroq oʻrganish va yangi metodlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri boʻlib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bishop, D.V.M. (1997). Uncommon understanding: Development and disorders of language comprehension in children. Hove: Psychology Press.
2. Bishop, D.V.M. (1998). Development of the child's language system. Oxford.
3. Chiat, S. (2000). Understanding children with language problems. Cambridge.
4. Stackhouse, J., & Wells, B. (1997). Children's speech and literacy difficulties. London: Whurr Publishers.
5. Grunwell, P. (1985). Phonological assessment of child speech. London.
6. Shriberg, L.D., & Kwiatkowski, J. (1994). Phonological disorders I: A diagnostic classification system. Journal of Speech and Hearing Research.
7. Gierut, J.A. (1992). The conditions and course of clinically induced phonological change. Journal of Speech and Hearing Research.
8. Law, J. (1995). The use of single-case studies in speech and language therapy. Child Language Teaching and Therapy.